

# **RUHIY RIVOJLANISHI SUSTLASHGAN BOLALAR PSIXOLOGIYASINING XUSUSIYATLARI**

Xamrayeva Iroda Sayfullayevna.  
TDPU Oligofrenopedagogika  
kafedrasi dotsent v/b, PhD.

## **Annotatsiya**

Ushba maqolada ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning ruhiy jarayonlari va bilish faoliyatları, psixologik va pedagogik yondashuv doirasida ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning o‘ziga xos xususiyatlari yuzasidan olimlarning ilmiy izlanishlari o‘rganilgan va tahlil qilingan.

## **Tayanch so‘zlar va iboralar**

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar, ruhiy jarayonlari va bilish faoliyatları, omil va sababning bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqligi, oliv nerv faoliyi.

**Хамраева Ирода Сайфуллаевна. Особенности психологии детей с задержкой психического развития.**

## **Аннотация**

В данной статье изучены и проанализированы научные исследования ученых относительно психических процессов и познавательной деятельности умственно отсталых детей, особенностей умственно отсталых детей в рамках психолого-педагогического подхода.

## **Ключевые слова и фразы**

Дети с задержкой психического развития, психические процессы и познавательная деятельность, взаимосвязь факторов и причин, высшая нервная деятельность.

**Khamraeva Iroda Sayfullaevna. Peculiarities of psychology of children with mental retardation.**

## **Annotation**

This article examines and analyzes the scientific research of scientists regarding the mental processes and cognitive activity of mentally retarded children, the characteristics of mentally retarded children within the framework of a psychological and pedagogical approach.

## **Key words and phrases**

Children with mental retardation, mental processes and cognitive activity, the relationship of factors and causes, higher nervous activity.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning ruhiy jarayonlari va bilish faoliyatları qator xorijiy va MDH davlatlarining defektologiya ilmiy tekshirish

muassasalarida olimlar tomonidan turli yo‘nalishlarda o‘rganilgan va o‘rganilmoqda. Bularga N.V.Babkina, N.L.Belopolskaya, N.A.Derevyankina, O.V.Zashirinskaya, V.I.Lubovskiy, K.K.Mamedov, Y.M.Milanich, N.A.Shipina, G‘.B.Shoumarov va boshqalarni ko‘rsatish mumkin. Xususan, ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar ta’lim-tarbiyasi va psixologiyasi bo‘limida akademik V.I.Lubovskiy rahbarligidagi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan va olib borilayotgan ishlarni ko‘rsatish mumkin.

Psixologik va pedagogik yondashuv doirasida ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatadigan juda katta materiallar aniqlangan, bu ularni bir tomondan normal intellektual rivojlangan bolalardan, ikkinchi tomondan aqli zaif bolalardan ajratib turadi. Bosh miya tuzilishida pishib yetilish tezligining va shu bilan birga intellektual rivojlanish tezligining buzilish darajasi noqulay biologik, ijtimoiy va psixologo-pedagogik omillarning o‘ziga xos kombinatsiyasi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Milliy va xorijiy psixolog olimlar bola psixikasining rivojlanishi juda murakkab va ko‘plab omillarning o‘zaro ta’siriga bog‘liq deb ta’kidlashgan.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning (normal rivojlanayotgan bolalardan va aqli zaif bolalardan farqli o‘laroq) eng xarakterli xususiyatlari (ko‘rgazmali-harakatli va so‘z-mantiq tafakkur (og‘zaki-mantiqiy fikrlash) operatsiyalari o‘rtasidagi darajaning nomuvofiqligi):

- mantiqiy fikrlash va tushuntirishni talab qiladigan barcha vazifalar ular tomonidan normal rivojlanayotgan bolalarga qaraganda ancha pastroq bajariladi;
- ko‘rgazmali namuna bo‘yicha xuddi shu vazifani bajarayotganda, uning ishslash sifati yaxshilanadi va ruhiy rivojlanishi sustlashgan bola aqli zaif bolaga qaraganda aqliy faoliyatning ancha yuqori darajasini ko‘rsatadi. Masalan, tasniflash vazifasini bajarayotganda, elementlarni jinsi bo‘yicha to‘g‘ri guruhlagan holda, ko‘pincha ushbu guruhnini tegishli tushuncha bilan nomlay olmaydilar, ularni birlashtirish prinsipini tushuntirishga qiynaladilar. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan

bolalarning normal rivojlanayotgan va aqli zaif bolalardan juda muhim farqli jihatlari quyidagilar:

- “To‘rtinchisi ortiqcha” vazifasini bajarish ko‘pincha ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolaga qiyinchilik tug‘diradi. Biroq, qo‘sishimcha elementlarning kiritilishi (“To‘rtinchisi ortiqcha” emas, balki “Oltinchisi ortiqcha”) bu guruhning qolgan qismi uchun noo‘rin bo‘lgan obyektni to‘g‘ri aniqlashga yordam beradi va bunday tanlov sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan ajratishni bildiradi.

Aqli zaif bolalardan farqli o‘larоq, ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar ancha yuqori ta’lim olish qobiliyatiga ega. Ular o‘qituvchi yoki kattalarning yordamidan juda yaxshi foydalana oladilar. Vazifalarni bajarishda namuna sifatida ko‘rsatilgan harakatlarni shunga o‘xshash holda bajarish qobiliyatiga egalar. Shu sababli bolalarda ruhiy rivojlanishi sustlashganlik holatini aniqlash uchun ta’limiy eksperimentni o‘tkazish jarayonida to‘g‘ri diagnoz qo‘yish juda muhim hisoblanadi.

Ruhiy rivojlanishi sustlashganlik muammosini o‘rganayotgandagi eng muhim vazifa uning sabab-oqibat munosabatlarini bilishdir.

Ruhiy rivojlanishi sustlashganlik holatining yuzaga kelish sabablari turli-tuman, shuningdek, ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar guruhining o‘zi ham juda xilma-xil. Ulardan ba’zilari uchun hissiy rivojlanishning sekinlashishi va xulq-atvorni o‘zboshimchalik bilan tartibga solish birinchi o‘ringa chiqsa ham, intellektual sohadagi xuddi shu buzilishlar to‘satdan ifoda qilinmaydi. Ruhiy rivojlanishi sustlashganlik holatining boshqa shakllarida kognitiv faoliyatning turli jihatlarining rivojlanmaganligi ustunlik qiladi.

“Omil” ya’ni faktor va “sabab” tushunchalari bir xil mazmunga ega emas. Biror bir ajratib olingan omil hech qanday sabab bo‘lishi mumkin emas. Organizmning (individual intellektual) har qanday o‘zgarishi “ichki bir lahzadayoq” - patogen omillarga munosabati bilan belgilanadi (G.YE.Suxareva). Har bir salbiy kechinmalarni ruhiy rivojlanishi sustlashganlik holatini keltirib chiqaruvchi omil sifatida baholash to‘g‘ri emas, chunki omilning ahamiyatlilik

darajasi bolaning shaxsiyati va uning oilasining ichki psixologik xususiyatlariiga bog‘liq.

**Ruhiy rivojlanishi sustlashgan o‘quvchilarning oliy nerv faoliyatları quyidagi o‘ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi (V.I.Lubovskiy):**

- asosiy nerv jarayonlarining kuchsizligi, tormozlovchi shartli bog‘lanishlarning sekinligi, nerv jarayonlarining tez charchashi va toliqishi;
- nerv jarayonlarining keng irradiatsiyasi (markaziy nerv sistemasida qo‘zg‘alish jarayonlarining keng tarqaganligi);
- nerv jarayonlarning inertligi, bo‘shligi.

Yuqorida aytib o‘tilgan ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar nerv sistemasining o‘ziga xos xususiyatlari ma’lum darajada aqli zaif bolalarga ham xosdir. Biroq, ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalardagi bunday holatlar aqli zaif bolalardagidek keskin ifodalangan bo‘lmaydi. Bundan tashqari, sifat jihatidan ham farq qiladilar, ya’ni shartli bog‘lanishlarning hosil bo‘lishida aqli zaif bolalardan farqli ravishda ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarda so‘z, nutq sistemasi katta rol o‘ynaydi. Shuni qayd qilish lozimki oliy nerv faoliyatining yuqoridagi xususiyatlari neyrodinamikaning yetarli darajada rivojlanmaganligidan darak beradi. Bu hol normal bolalarda ham uchrashi mumkin. Lekin ularda maktabgacha yoshda kuzatiladi, xolos.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar shakllaridan biri organik infantilizmning kliniko-psixologik ko‘rinishining xususiyatlari asosan kayfiyatning ustunligi bilan bog‘liq. Ko‘tarinki kayfiyatda bo‘lgan bolalarda impulsivlik va psixomotor harakatlanish, bolalarning quvnoqligiga bevosita taqlid qilish ustunlik qiladi. Bu ixtiyoriy harakat va tizimli faoliyatga qodir emasligi bilan tavsiflanadi.

Bunday bolalar darslarda qo‘zg‘aluvchan, bezovta, intizom talablariga bo‘ysunmaydilar, tanbehlarga javoban ular yaxshilanishga va’da berishadi, lekin bu haqda darrov unutishadi. Bu bolalar suhbat jarayonida o‘qishga nisbatan salbiy munosabatni ochiq-oydin va soddalik bilan uyalmasdan, ya’ni o‘qish qiziqarli

emasligini, o‘qish qiyin ekanligini, aksincha, ular sayr qilishni yoki o‘yin o‘ynashni xohlashlarini bildiradilar.

Tushkun kayfiyatda bo‘lgan bolalar uchun uyatchanlik, qo‘rqoqlik, qo‘rquvga nisbatan moyillik ustun bo‘ladi. Bu hissiy fon, shuningdek, har doim birga keladigan serebrastenik kasalliklarda faollik, tashabbuskorlik va mustaqillikning shakllanishiga to‘sinqilik qiladi hamda bu bolalarda o‘yinga bo‘lgan qiziqishlari ustunik qiladi. Ular maktabga va bolalar jamoasiga moslashishlari qiyinchilik bilan kechadi, biroq, darslarda o‘zlarini yaxshi va to‘g‘ri tutishga harakat qiladilar.

Shuning uchun bu bolalar intizomni buzish bilan bog‘liq harakatlari uchun emas, balki ta’limdagi qiyinchiliklarga uchragani uchun shifokorga murojaat qilishadi. Ular ko‘p hollarda maktabdagi, ta’lim olishdagi muvaffaqiyatsizliklarini qiyinchilik bilan o‘tkazadilar. Umuman olganda, o‘sib kelayotgan bolalardagi nevrotik kasalliklar ularning mustaqilligini, faolligini va shaxsiyatidagi butun rivojlanishlarga to‘sinqilik qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Бабкина Н.В. Психологическая готовность к школьному обучению детей с ЗПР // Диагностика и коррекция задержки психического развития у детей / Под ред. С.Г. Шевченко. М.: АРКТИ, 2001.
2. Жаренкова Г.И. Психолого-педагогическое изучение учащихся с ЗПР в специальной школе. // Дефектология. – 1981. – № 2.
3. Заширинская О.В. Психология детей с задержкой психического развития. Санкт-Петербургский государственный университет, 2019.
4. Инденбаум Е., Коробейникова И., Бабкина Н. Дети с задержкой психического развития. Учебное пособие для общеобразовательных организаций. М.: Просвещение, 2020.
5. Мамедов К.К., Шоумаров Ф.Б., Подобед В.Л. Рухий ривожланиши сустлашган болалар ҳақида. Т.: Ўқитувчи, 1993.
6. Миланич Ю.М. Психологическая диагностика задержки психического развития: учебное пособие. Издательство С.Петербург университета. 2019, 176-с.
7. Ушинский К.Д. Воспитание внимания / К.Д. Ушинский. – Москва // Возрастная и педагогическая психология: хрестоматия: для студентов высших

педагогических учебных заведений / Сост. И.В.Дубровина, А.М.Прихожан, В.В.Зацепин. – Москва: Академия, 2001. – с. 125-130. – (Высшее образование).